

Taniqli adib Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotida nasrning turfa xil janrlarida sermahsul ijod etmoqda. Uning ijodiy yo'lida yangicha izlanishlarni kuzatamiz. Xususan, bu uning esse va badiialarida ko'rinadi. Shuning uchun biz ijodkor bilan esse janri tabiati va bevosita Shukur Xolmirzayev ijodida essening o'rni, yaratilishi haqida suhbatlashdik.

- Shukur aka, ma'lumki, esse qadimiy janr sifatida nafaqat adabiyot olamini, boshqa fanlar va jamiyat hodisalarini ham qamrab oladi. Sizning ijodingizda essening turli yo'nalishlarini ko'ramiz. Chunonchi, badiiy, adabiy-tanqidiy, tarixiy, publitsistik, xotiraviy yo'sindagi esselaringiz mavjud. Esse janri tabiati, genezisi haqida mulohazalaringizni bildirsangiz. Sizningcha, bu janrning ocherk, hikoya singari nasriy janrlardan, shuningdek, xotiralardan tafovutli jihatlari nimalarda ko'rinadi?

- Bizda bir kekxa yozuvchi bor. Janrlarning bir-biridan farqini bilmagani bilan faxrlanib yuradi. "Man bilmayman qanaqa janrda yozib qo'ydim. Kitobxonga yoqsa, bas", deydi. Va janrdan janrning farqini Sadridin Ayniy ham bilmaganini ro'kach qiladi. Ha, endi bunday "bilmaslik"ning sabablari bo'lsa bordir, albatta...

Ammo shofyor odam mashinaning mashinadan farqini, chavandoz yigit otning otdan farqini bilganidek adib degani ham adabiyot ilmidan baholi qudrat xabardor bo'lishi kerak. Bu - aksioma, singlim. Endi mening "esse"ga, o'zingiz aytmish, uning "tabiati"ga doir mulohazalarimga kelsak, ma'lumingiz, asosan hikoyanavis sifatida gapni hikoyadan boshlasam.

Ruslarda "rasskaz" - "rasskazat"dan olingan deydilar. Ya'ni bir voqeani "aytib berish, hikoya qilish" demakdir. Boshda aksar rus adiblari haqiqatan ham "hikoya qilish, bayon etish" yo'lidan borganlar. Hatto frantsuz, hatto hind adiblari ham avvalda shu yo'sinda ijod qilganlar. Keyinchalik ijodning tadrijiy takomili taqozosida Chexov kabi novator yozuvchilar chiqib: "Yo'q, voqeani bayon qilmaslik kerak, balki ko'rsatish lozim", deb shu yo'rig'da asarlar bitganlar. Illo, "ko'rsatish, xolis tasvirlash yo'li" - asl adabiyotning yo'li edi.

Demak, hikoyada ma'lum bir voqea (inson hayotining ma'lum bir bo'lagi) tasvirlanadi. Demak, xolis tasvirlanadi va aksar hollarda hikoyadan chiqariladigan xulosa o'quvchiga havola etiladi... Eng yaxshi hikoyalar shu tariqa yoziladi. Shu o'rinda aytib ketishni istar edimki, bugungi kunda - keyingi o'n yilliklarda yozilayotgan hikoyalarning ko'pchiligida orqaga qaytishni, ya'ni oddiy bayon qilish, shunchaki aytib berishni ko'raman. Bu hol - o'sha mualliflarning qandaydir ongli ravishda "ortga", aniqrog'i, hikoya janrining ibtidoiy holatlariga qaytishidan dalolat bermaydi - aksincha: o'sha mualliflarning hikoya janri xususiyatlaridan, hikoyaning janr sifatidagi takomilidan bexabar ekanligidan dalolat beradi.

Men bunday havaskor adiblarni yuqoridagi aytganim - "janrning janrdan farqini bilmaydigan" adiblarga o'xshataman. Endi "ocherk" janrining o'ziga xos jihatlari kelsak, bunda ham ma'lum bir voqea - inson qismatining bir bo'lagi qalamga olinadi-yu, ammo hikoyadan farqli o'laroq ocherkda mavjud - bor hayotiy odam qalamga olinadi. Shu bois muallifning o'sha odamga - qahramonga munosabati ochiq-oydin bo'rtib turadi. Shuning uchun hamdir men o'qigan aksar ocherklarda ijobiy xislatli kishilar tasvirlanadi... Endi "Esse"ga kelsak, bu janr hikoya, ocherk janridan juda yosh bo'lishiga qaramay, yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi: ya'ni esse yozuvchi adib tasvirlyotgan yoxud bayon etayotgan voqea-hodisaga - yana o'sha gap: inson qismatining ma'lum davri bo'lagiga nisbatan o'z munosabatini (ocherkdagi kabi) ochiq-oshkor bildirib turishi barobarida (bu yo'rug'da) o'z ko'nglida tug'ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkoniga egadir. Demak, aytilish mumkinki, esse janri ocherk bilan hikoya o'rtasidan o'sib chiqqan janr - tasvir usulidirki, u maqola - maqola ilmiy bo'ladimi, badiyroq bo'ladimi, baribir, - maqolaga xos unsurlardan ham foydalanadi, to'g'rirog'i, ularni-da o'zini qilib oladi. Marhabo singlim, esda tutingki, adabiyotdagi har bitta janr ham o'z davriga xos, uning ehtiyojlarini to'laroq ifodalash zamirida paydo bo'lar ekan.

Esse ham shu tariqa paydo bo'lgan ekan. Darvoqe, uning paydo bo'lgan makoni Frantsiya hisoblanadi. Umuman, frantsuz adabiy tafakkuri hamisha boshqalardan oldinroqda yurgan va zamonning talabu ehtiyojlarini boshqa dunyo adiblaridan ilgariroq his etgan. Qarangki, "roman" janri ham dastlab frantsuzlarda paydo bo'ldi va eng dunyoviy-milliy romanlar o'shalarda yaratildi.

Buyog'i ham qiziq: taajjub qilasanki, "Antiroman" (Sartre asarlari) ham o'shalarda paydo bo'ldi.

Esimdan chiqibdi: Siz "Xotira janri" haqida so'rovingiz. Singiloy, "Xotira - xotira"-da: uni har kim yozishi mumkin va unga qo'yiladigan talab ham o'ziga yarasha bo'ladi. To'g'ri, Tagorning xotiralari ("Rossiyadan xatlar"i yoki Erenburgning xotiralari yoxud Uelsning "Rossiya zulmat qo'ynida") yoxud shu kabi yodnomalar borki, ularni esse deyish ham mumkin, ocherk deyish ham.

Ular shunchaki "xotiralar" deb janrini qo'yib yuborganlar. Qolaversa, ularni qiziqtirgan dolzarb masalalar oldida "janr" haqida o'ylash xayollariga ham kelganov...

- Esse, mening nazarimda, yozuvchining hayot, inson va jamiyatni tushunish va tushuntirish shakllaridan biridir. Ayting-chi, sizning aynan shu janrga murojaatingizning boisi nimada?

- Essega murojaat qilishimning boisi - fe'limda bo'lsa kerak: bolalikdan erkinlikni sevardim. Esse - erkin janr, bundan tashqari, u agar ta'bir joiz bo'lsa, "razmersiz janr"ki, kiyim tanlaganda bo'yinggayu eningga o'lchab o'tirganday siqilmaysan.

- 70-yillarda Yevropa adabiyotida esse-roman, esse-qissa, esse-hikoya, hatto fantastik esselar ham yaratish avj olib ketdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, G'arb adabiyotshunosligida romantika va fantaziyaga qurilgan adabiyot o'rnini bir kun kelib esse egallaydi, degan shov-shuvli munozaralar paydo bo'ldi. Ammo 30 yil vaqt o'tdi hamki, prozaning barcha janrlari baravar ijod shakli sifatida rivojlanmoqda. Sizning shu bahslarga munosabatingiz qanday?

- Rost aytasiz, o'sha yillarda esse-roman, esse-qissa...lar ko'p yaratildi va adabiyotshunoslikda "boshqa janrlarning sho'ri quridi", degan gaplar ham paydo bo'lgan edi.

Buning sababini men o'sha G'arbdagi ma'naviy-adabiy va boshqa-boshqa ehtiyojlardan, deb bilaman. Qolaversa, o'sha tur asarlarning mualliflari juda unaqa - adabiyot - mening qismatim degan ijodkorlar bo'lishmagan. Adabiyotshunoslarning karomatu bashoratlarida esa adabiyotga nisbatan yengil taklifni ko'raman. Sizga bir misol aytayin: o'tgan asrda rangli fotografiya san'ati yaratildi. Va... karomatu bashoratchilar nimalar deyishdi: "Tasviriy san'atning kuni bitdi!" deb ayyuhannos solishdi... Yo'q, sal vaqt o'tmasidan Tasviriy san'at insoniyat yaratgan eng ulug' san'atlardan biri ekaniga yana iymon keltirdilar. Bunday gaplar bo'laverar ekan. Axir, har bitta janr kabi San'atning har bir turi ham - ming-ming yillik aqliy va hissiy, ma'naviy va madaniy izlanishlar hosilasidir. Biz ularni faqat boyitishimiz, yanada kamol toptirishimiz lozim, xolos...

Shu o'rinda bitta chekinish qilsam: yaqinda Komil Avaz degan qalamkashning "Qo'nalga" nomli esse-roman deb janrini belgilagan asari qo'limga tushdi. Bu haqda xorazmlik og'am - go'zal shoir Erkin Madrahimov (Oshiq Erkin) aytgan edilar: "Shukurjon, shuni bir o'qing". Xullas, o'qib chiqsam, juda g'aroyib esselar majmuasi ekan. Bekorga "majmua" demayapman. Illo, bironta essening boshqa birontasi bilan deyarli aloqasi yo'q. Tag'inB "birinchi roman" degan ilova ham bor.

Tavba, buning nimasi roman? O'ylab-o'ylab shu fikrga keldim: romanli bo'lishni istabildlarda Komil og'a. Ha, orzuga ayb yo'q.

This is not registered version of TotalDocConverter

Qo'lasiz, Fotima Sharipova! Qanaqang xon-xatun, uljirashga o'xshab ketadigan asarlar chiqib ketmayotir. Mana shunaqa gaplar. Siz G'arb adabiyotida paydo bo'lgan esse-romanlarni gapirib yuribsiz. O'taveradi... Shoshmang, agar "Qo'nalg'a" - esselar to'plami deb e'lon qilinganda, kamina Komil Avazni tabriklagan bo'lardim.

- Shukur aka, sizga yana bir savol bermoqchi edim, jahon essenavislaridan qaysi yozuvchi ko'proq yoqadi?

- Jahon essenavislaridan... Esimga kelmayapti. Ha, o'tgan yili Skandinaviya yozuvchilaridan Farli Mouetning shimol muzliklarida yashayotgan elatlar hayotidan yozilgan esselar to'plamini topib o'qidim. Keyin ruslardan Yuriy Nagibinning "Dunyo bo'ylab" degan kattagina esselar to'plamini o'qib chiqdim. Farli Mouetning ayrim esselari Jek Londonning shimol hikoyalari bilan bo'ylashar ekan. Yuriy Nagibin esa, aslida essenavis ekan. Men u adibni "yozuvchi, stsenarist" deb yurardim.

- Bugungi kunda o'zbek adabiyotida kimlarni essechilikda faol qalam tebratayapti deb o'ylaysiz?

- Bugungi o'zbek adabiyotida Dadaxon Nuriyni eng faol essechi, deb bilaman. Uning bir necha esse to'plamlari chiqdi. Ularga man-man degan adabiyotshunoslar so'z boshi yozishgan. Chunonchi, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov... va boshqalar. Ammo matbuotda shu publitsist adibning durustroq maqtalganini bilmayman. Holbuki, bunaqangi jonkuyar, yurtparvar adibni topish qiyin. Boshqa essenavislardan domlamiz Ozod Sharifiddinovni aytgim keladi. Ammo lekin, shu paytgacha Odil Yoqubovning "Farzandlar burchi" nomli esselarichalik go'zal esselarni o'qimaganman. Bugungi kundagi essenavislardan tag'in Sobirjon Qodirov, Karim Bahriev, Qulman Ochil, Fotima Sharipovalarni mamnuniyat bilan tilga olaman.

- Mana siz 68-yildan beri shu janrda ijod qilmoqdasiz. Ayniqsa, keyingi paytlarda juda ko'plab yozuvchi, shoirlar, umuman san'at ahli haqida, jamoat arboblari bag'ishlab yozilgan esse va badialaringiz bor. Ayting-chi, esselaringiz orasida sizga eng ma'quli qaysi biri?

- Deyarli barcha esselarim o'zimga yoqadi. Chunki... ulardan birontasini qayta yozgim kelmaydi.

Suhbatni Til va adabiyot institutining aspiranti Marhabo Qo'chqorova yozib oldi.